
Farg'ona viloyati hokimligining ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashdagi natijalari II Toshkent Aksilkorruptsiya forumida alohida e'tirof etildi

Kecha Toshkentda korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida milliy va xalqaro miqyosda muhim ahamiyatga ega bo'lgan II Toshkent Aksilkorruptsiya forumi bo'lib o'tdi.

Unda AQSh, Koreya, Gonkong, Malayziya, Latviya, Ozarbayjon davlatlarining korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idora vakillari, shuningdek, xorijiy ekspertlar, diplomatik korpus va xalqaro tashkilotlar, 100 dan ortiq vazirlik va idoralar, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etishdi.

Korruptsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi, Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi, Adliya vazirligi, Bosh prokuratura hamda BMT Taraqqiyot dasturi hamkorligida tashkil etilgan forum kirish qismida Milliy kengash raisi Tanzila Norboeva ma'ruza qildi.

So'nggi davrda mamlakatimizda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashda alohida namuna ko'rsatgan davlat organlari, jamoatchilik institutlari hamda OAV vakillari qatorida Farg'ona viloyati hokimligi ham forum doirasida alohida e'tirof etildi. BMTning O'zbekistondagi doimiy koordinatori Roli Astxana viloyat hokimligi axborot xizmati rahbariga Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligining e'tirof statuetkasini topshirdi.

2022-09-27 15:58:18